

“TUSHDA KECHGAN UMLAR” ASARIDA INSON RUHIYATINING BADIY TALQINI

Sevandikova Sabina

Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani asosida urush fojeasining inson ruhiyatiga ta'siri tahlilga tortilgan. Asarda urushning tashqi manzaralaridan ko'ra, uning inson ongida, ko'z oldida va xotirasida qoldirgan chuqur ruhiy jarohatlari yoritilganiga ilmiy jihatdan yondilgan. Urush inson hayotini nafaqat jismonan balki ruhiy jihatdan ham izdan chiqaruvchi omil ekanligini xulosalangan.*

Kalit so'zlar: *syujet, voqealar rivoji, urush fojeasi, inson ruhiyati, xotira, mahorat.*

Urush mavzusi adabiyot tarixida doimo muhim va murakkab mavzulardan biri bo'lib kelgan. Bu mavzudagi ko'plab asarlar tarixiy voqealarga, tarixiy shaxslar qahramonliklari, fidoiyligi haqida yoritgan bo'lsa, bugungi kunda ya'ni zamovaviy adabiyotlarda esa inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi fojia sifatida qaralmoqda.

Urush nafaqat jismonan, balki ruhan ham insonlarning xotirasida yomon voqealar bilan saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, urushning inson ongida qoldirgan ruhiy jarohatlari, xotira va vijdon bilan bog'liq iztiroblar badiiy asarlarning asosiy tahlil obyektiga aylanmoqda.

O'zbek adabiyotida mazkur masalalarni ta'sircan va chuqur yoritgan asarlardan biri O'tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanidir. Ushbu asarda nafaqat ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida, balki inson hayotini izdan chiqaruvchi, inson ongida o'chmas dog' qoldiruvchi fojia sifatida qaraladi.

Urush manzarasidan ko'ra urushdan keyingi inson ruhiyatini, xotira va tushlar orqali namoyon bo'ladigan ichki kechinmalarni muallif markazga chiqaradi. Mazkur romanda yozuvchi Afg'on urushi davrida yuz bergan voqealar orqali inson taqdiri, urushning fojiali oqibatlarini, jamiyatdagi adolatsizlik hamda onalar qalbidagi cheksiz dardni ta'sirchan tarzda yoritib beradi.

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham adibning avval yaratilgan romani “Ikki eshik orasi” romani kabi voqelik bir necha roviylar tilidan hikoya qilinadi. Bu usul adib uchun o'z g'oyasi va fikrlarini ifoda etishning vositasi bo'lib xizmat qilgan. Aynan shu holat asar syujetining ham o'ziga xosligini ta'minlagan. “Tushda kechgan umrlar” romani o'zbek adabiyotida inson ruhiyatining chuqur tahlili va jamiyatdagi murakkab munosabatlarni yoritishda muhim o'rin egallaydi. Ushbu asar badiiy realizm va psixologizm elementlarini o'zida mujassamlashtirib, qahramonlar xarakterining teran ifodalanishi orqali o'quvchini inson hayotining nozik va murakkab jihatlariga chorlaydi. Roman qahramonlari hayotiy vaziyatlarga turlicha munosabatda bo'lib, ularning xarakterlari ijtimoiy, ma'naviy va psixologik bosqichlarda shakllanadi. Bosh

qahramon o'z orzulari va amaliy hayot o'rtasidagi ziddiyatlarni boshdan kechiradi, bu esa uning xarakterining murakkabligi va teranligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yordamchi qahramonlar ham asarning syujetini boyitadi, ularning xarakterlari bosh qahramon hayotidagi voqealar rivojiga ta'sir qiladi.

“Tushda kechgan umrlar” romanining asosiy jihatlardan biri bu unda psixologik realizm ustuvor o'rin egallashidir. O'tkir Hoshimov qahramonlarning tashqi ko'rinishlari orqali emas, balki ularning ichki kechinmalari, tushlari va xotiralari orqali ochib beradi. Bu usul urush fojeasining inson ongiga qanday singib ketganini ilmiy psixologik tomondan ham dalillaydi.

Asarda voqealar ketma-ketligidan ko'ra, asarda insonning ichki kechinmalari asarning markaziga qo'yiladi, ya'ni bu urushdan so'ngi voqealar haqida emas, balki insonlarning psixologiyasi va ularning ichki kechinmalari asarning asosiy mavzularidan biri sanaladi. Qahramonlar jamiyatdan begonalashgan, yolg'iz va tushinilmagan his qilinadi. Bu hodisa esa insonning ijtimoiylashuviga ham salbiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi, ya'ni ba'zi bir inson urushdan olgan psixologik travmalar sababli insonlar bilan ko'p gaplashmaydigan bo'lib qolganliklari haqida ko'rishimiz mumkin.

Roman tahlilida xotira kategoriyasi alohida kasb etadi, chunki bu asarda hozirda bo'layotgan voqealar ham oldin o'tmishda bo'lgan urush xotiralari qo'shilib qolganini ko'rishimiz mumkin. Bu uslub urushning inson ongida vaqt chegaralarini yo'qotishini ifodalaydi. Asarda xotira qahramonlar uchun nafaqat eslash vositasi, balki ruhiy azob manbai hisoblanadi. Ular unutilishni istaydi, biroq xotira bunga qarshilik qiladi. Bu hodisa orqali muallif urush insonlar ongida chuqur va o'chmas xotiralar qolganini real tasvirlay olgan.

O'tkir Hoshimov urushga nisbatan aniq pozitsiyani egallaydi, ya'ni u urushni hech qachon oqlamaydi va uning tarixiy zaruriyat sifatida ham ko'rsatmaydi. Aksincha, urush inson tabiatiga, ongiga zid tushuncha sifatida talqin etiladi. Bu pozitsiya esa asarning insonparvarlik mohiyatini ham belgilab beradi.

“Tushda kechgan umrlar” romanini adabiyotshunoslik, psixologiya va ma'naviyatshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaryaigan bo'lsak, bu muhim tadqiqot obyekti bo'la oladi. Asarda urush mavzusini yoritish uchun uning tashqi manzarasi yoki voqealar ketma-ketligidan chetga chiqib, inson ruhiyatidagi murakkab qatlamlarni ochib bergan holda yoritilgan. Mazkur roman orqali yosh avlod ongida urushga nisbatan real va tanqidiy munosabat shakllantiriladi. Tinchlik, inson qadr-qiymati va ma'naviy mas'uliyatli tushunchalarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Imiy tahlil natijasida shuni ta'kidlash muminki, “Tushda kechgan umrlar” romani urush fojeasini inson ruhiyati orqali ochib bergan buyuk va falsafiy asar hisoblanadi. Unda urushing eng og'ir oqibati – inson xotirasi, vijdoni va ongida qolgan bitmas jarohatlari chuqur tahlil qilingan asardir. O'tkir Hoshimov bu asar orqali urushni tarixiy voqea sifatida emas, balki insoniy fojea sifatida baholagan.

Roman ilmiy jihatdan psixologik realizm, travmatik xotira va shaxs-jamiat ziddiyati kabi muammolarni yoritishi bilan alohida ahamiyat kasb etgan.

Shu boisdan ham asar nafaqat kitobxonlar uchun muhim, balki ilmiy-ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hoshimov O'. "Tushda kechgan umrlar" romani. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2022.
2. Karimov N. "O'zbek adabiyotida psixologik realizm". – Toshkent: Fan, 2010.
3. Yo'ldoshev Q. "Badiiy asar tahlili asoslari". – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
4. Rasulov A. "Adabiyot ruhiyati". – Toshkent: Akademnashr, 2018.